Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 373.8.155
ORCID: 0009-0007-9643-4020

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "ATVOQ UZ-ZAHAB FI-L MAVOIZ VA-L XUTAB" ASARI VOSITASIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi,
TerDU tayanch doktoranti
E-mail:qurbonovaterdupi.uz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning asarlari orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirish, asarning tarjima nazariyalari haqida fikr yuritilgan. Shu ma'noda, nazariyotchi olim Mahmud az-Zamaxshariy ma'naviy merosidagi ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi va uning mohiyati pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilingan. Maqolada muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil etish, manbashunoslik, falsafiy-tarixiy, sivilizatsiyaviy-madaniy, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, mutafakkirning boshqa allomalardan farqli ravishda, tarbiya muammosiga qaratilgan qarashlari tahlilga tortilgan. "Atvoq uz-zahab fi-l mavoiz va-l xutab" asarining ilmiy-nazariy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pand-nasihat, ijtimoiy ehtiyoj, globallashuv, sabr toqat, vijdon, iymon, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, milliy o'zlik

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ ПРОИЗВЕДЕНИЯ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ «АТВОҚ УЗ-ЗАХАБ ФИ-Л-МАВОИЗ ВА-Л-ХУТАБ»

Аннотация. В данной статье рассматривается совершенствование духовно-нравственных качеств студентов посредством произведений Махмуда аз-Замахшари, а также анализируется переводческая теория его трудов. В этой связи предпринята попытка проанализировать концепцию духовно-нравственного воспитания, её сущность и значение в духовном наследии ученого и теоретика Махмуда аз-Замахшари с педагогической точки зрения. Для исследования использованы методы сравнительного анализа литературы, источниковедения, философско-исторического, цивилизационно-культурного и системного подходов.

Особое внимание уделено взглядам мыслителя на проблему образования, что отличает данный анализ от работ других ученых. Также раскрыта научно-теоретическая и просветительская сущность произведения «Атвак уз-Захаб фи-л-Мавоиз ва-л-Хутаб».

Ключевые слова: совет, социальная потребность, глобализация, терпение, совесть, вера, толерантность, трудолюбие, национальная идентичность

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

DEVELOPING STUDENTS' MORAL AND ETHICAL VIRTUES THROUGH MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARIY'S WORK "ATWAQ UZ-ZAHAB FI AL-MAWAIZ WA AL-KHUTAB"

Annotation. This article reflects on the improvement of students' spiritual and moral qualities through the works of Mahmud al-Zamakhshari, and the translation theories of the work. In this sense, an attempt was made to analyze the concept of spiritual and moral education and its essence in the spiritual heritage of the theoretician scholar Mahmud al-Zamakhshari from a pedagogical point of view. The article uses methods such as comparative study and analysis of the literature on the problem, source studies, philosophical-historical, civilizational-cultural, systematic approach. Also, unlike other scholars, the thinker's views on the problem of education are analyzed. The scientific-theoretical and educational essence of the work "Atvaq uz-zahab fi-l mavaiz wal-l khutab" has been revealed.

Key words: advice, social need, globalization, patience, conscience, faith, tolerance, hard work, national identity

KIRISH. Tarixdan ma'lumki, buyuk allomalarimiz barkamol avlod tarbiyasi xususida o'z asarlarida, ruboiylarida, g'azallarida bayon qilganlar. Buyuk ajdodlarimizning bebaho boyligi bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Bu borada alloma, mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy merosni xolisona o'rganish, ularning asarlaridagi millat va jamiyat bardavomliligini tarannum etuvchi g'oyalarni tadqiq qilish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Globallashuv jarayonida chuqur ildiz otib borayotgan barcha sohalardagi tizimli islohotlarning ijobiy samaradorligi, shuningdek, kelajakning bardavom hamda barqaror bo'lishidek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan talabalar ma'naviyatiga bevosita bog'liq.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi, YUNESKO ning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, modulli ta'limni tashkil etishga, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan". [1] Talabalarning ma'naviy-axloqiy tabiyasi bu borada ustuvor hisoblanadi. Shu bois talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy merosini o'z-o'zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash mumkin emasligini anglab etish lozim.

"Buyuk adib va mutafakkirlarning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur". [2] Bu vazifalarni bajarishda Mahmud az-Zamaxshariyning yosh avlod tarbiyasiga oid pedagogik g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish muhim ilmiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Mahmud az-Zamaxshariyning boy ilmiy merosini o'rganish, tadqiq etish, oliy ta'lim tizimida zamonaviy tahlil va talqinda ko'rsatish keng jamoatchilik, xalqimizga tanitish, asarlarini nashr etish katta ahamiyatga ega. Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi umumbashariy nazariy-metodologik ahamiyatga molik qarashlari bo'lganligi uchun dunyo miqyosida keng qamrovli o'rganilgan. Ayniqsa Yevropa va Arab mamlakatlarida bu borada ibratli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu

tadqiqotlar bir qator dolzarb muammolarning ilmiy echimini topishda hal qiluvchi ekanligini isbotlangan. Mahmud az-Zamaxshariy ilmiy merosining bevosita vorislari o‘zbekistonlik filolog, sharqshunos olimlar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, olimning “Atvoq uz-zahab fi-l mavoi’z va-l-xutab” asaridagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘git va nasihatlarning tarbiyaviy mohiyati pedagogika fani negizida etarli darajada tadqiq etilgan emas. Shu ma’noda Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosi bugungi kun ijtimoiy hayotida Umumiy pedagogika fanining pedagogika nazariyasi ta’limotlar tarixi qismida o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilishi bugungi globallashgan jarayonda ijtimoiy ehtiyoj talabidir. Bularni inkor qilmagan holda Mahmud az-Zamaxshariyni biz millat tarbiyachisi va yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladigan, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan pedagogik qarashlarni ilgari surgan shaxs deb tushunishimiz kerak deb hisoblaymiz. Bugungi kunda butun dunyoda globallashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta’sir etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta'kidlash joizki, yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlod tarbiyasida milliy iftixor, milliy g‘urur kabi fazilatlarni shakllantirish va yuksaltirish asosida jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasini ta'minlashda ularning ijtimoiy faolliklarini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, hozirgi globallashuv jarayonida ma'naviy axloqiy tarbiya tizimiga mos keluvchi intizomli, yuksak mas'uliyatli, sabr toqatli, vijdoni pok, iymonli, bag‘rikeng, mehnatsevar, mustaqil fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlargina halol umrguzaronlik uchun kerakli bo‘lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo‘la oladilar, ijtimoiy faollik ko‘rsata oladilar.

Shu kabi omillar pedagogikaning dolzarb muammosi bo‘lgan Mahmud az-Zamaxshariyning tarbiyaga oid bo‘lgan o‘git va nasihatlarga boy bo‘lgan “Atvoq uz-zahab fi-l mavozi’z va-l-xutab” asari, uning qo‘lyozma va nashr nusxalari tarkibiy tuzilishi tarbiya sohasida tutgan o‘rni keng qamrovli o‘rganish, tadqiq etishni taqozo etadi.

Muammoning dolzarbligi yana shunda o‘z aksini topadiki, u talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqot orqali asoslab berish, tarbiyaning oltin namunalarini o‘rganish uchun metodologik zamin vazifasini o‘tashi mumkin. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev da’vatiga ko‘ra “yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.” [3] Ilm ma’rifatga tashnalik, inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning o‘rni, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, boy milliy madaniy-tarixiy an’analarga hamda xalqimizning intellectual ilmiy meroslarini chuqur o‘rganishga va ularni yoshlar ongiga singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish orqali ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirish jamiyat taraqqiyotining asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifa sifatida” belgilangan.[4] Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yoshlarning

ma’naviy-axloqiy tarbiyasini boyitish lozimdir. Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab fi-l mavozi’z va-l-xutab” asarini o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik ta'limotlar shaxs va uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida bahs yurituvchi murakkab nazariyalardan biri hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya zamiridagi insonni har tomonlama tarbiyalash, qalbini poklash, ilm egallash, nafsini jilovlashga o‘rgatish, kasb-hunar, mehnat orqali halol kun ko‘rish, o‘zaro bag‘rikenglikga undovchi g‘oyalar asrlar davomida o‘z ma'no mohiyatini yo‘qotgani yo‘q. Inson va jamiyat munosabatlari, inson tabiati, tarbiyasi, ruhiyati xususidagi bahs munozaralar kengayib bormoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Mahmud az-Zamaxshariy tomonidan yoshlar tarbiyasiga oid maxsus ma'naviyat kontseptsiyasi yaratilgan bo‘lib, hozirgi ta'lim-tarbiyada unda foydalanishning mexanizmlari tadqiqotchilar tomonidan hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mahmud az-Zamaxshariyning “Atvoq-uz zahab fil mavo‘iz val-xutab” nomli falsafiy-didaktik asari tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zamaxshariy ushbu asarni kelajak alod uchun yanada foydali va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi uchun asar muqaddimasida quyidagicha bayon etilgan “Ollohim, sendan nabiylarning, payg‘ambarlarning oxirgisi, hamma sevganlaringning xojasi, sayyidi bo‘lgan hazrati Muhammad Mustafo(s.a.v)ga va uning har biri bitta hidoya yulduzi, taqvo va xayr sohibi bo‘lgan sahobalariga va oila, yaqinlariga rahmat va salomimni darig‘ tutma deb yolvorib, duo qilib imonimni va amallarimni, barcha xizmatlarimni, qalamimning yozgan va yozajak bo‘lgani va qalbimda tug‘ilajak, paydo bo‘lgan maqomalarni, Karim bo‘lgan sifating hurmatiga o‘qimoqchi bo‘lganlarga fayz va barakot berishingni, bu yozganlarimga sharqda, g‘arbda va hamma tomonda odamlar foydalanadigan va istaydigan yozuvlar bo‘lish barakotini ato qilg‘il”[5]. Alloma ta’kidlaganidek: asarda yuzta maqola mavjud bo‘lib ular va’z nasihat, hikmatli so‘zlar, masal va maqolalardan, olimning ko‘p yillik sayohati natijasida umr bo‘yi eshitgan, ko‘rgan va boshdan kechirgan voqelarining tafsilotidan iborat hikmatlar durdonasi hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Allomaning ushbu asari haqida olimlar quyidagicha bayon etadi. Professor Alibek Rustamov “Atvoqu-z -zahab fi-l -mavo‘iz va-l-xutab (o‘git va nasihatlarning oltin munchoqlari).Yuz maqolalik pand, nasihat yaxshi hislatlar va hikmatli so‘zlardan iborat asar. Nemis va fransuz tillariga tarjima qilingan. Vena, Shtutgard, Parij, Bayrut va Misrda chop etilgan.”[6] Olimning asari dunyoning bir nechta davlatlarida ham o‘z ahamiyatiga ega ekanligini guvohi bo‘lib turibmiz. Mahmud Zamaxshariyning pedagogik qarashlari faqat tarix nuqtai nazari bilangina emas, bugungi kunimizga xizmat qilishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamaxshariy o‘z axloqiy qarashlaridan tahlil etsak, u inson sifatlarini quydagicha ko‘rsatadi: Kishilar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, muhtojlarga yordam ko‘rsatish, kechirimli bo‘lish, birovlarning baxtsizligiga hamdard bo‘la olish, o‘zgalar aybini ochmaslik, his-tuyg‘u va ehtiroslarga berilib ketmaslik (nafsni tiyish), xayrli ishlarda odamlar bilan ziddiyatga bormaslik (do‘stlar va yaqinlarga teskari ishqilmaslik), o‘z nuqsonlarini ko‘ra bilish, odob-axloqli bo‘lish, xushmuomalali bo‘lish.

Zamaxshariy asariga ko‘ra, inson azal-azaldan uning nazaridan yashirin barcha narsalarni bilishga talpinadi. Ilmni egalash yoki nodonlik va johillikni o‘ziga martaba bilish kishilarning oddiy munosabati bo‘libgina qolmasdan, balki odob-axloq sohasining muhim tamoyili bo‘lib xizmat

qiladi. Bu tushunchalar o‘z mohiyatiga ko‘ra, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va illat singari talqin qilinishi lozim. Kimning agar mijozi buzuq, tarbiyasi nomaqbul, pastkash xulqi ustuvor tursa, unda ilmga qiziqish, uning g‘aroyib lazzatidan bahramand bo‘lish ishtiyoqi ham kamol topmaydi. Ilmni egallashga bo‘lgan har qanday intilish kishini e’zozlaydi va uning martabasini yuksaltiradi.

XULOSA. Az-Zamaxshariy o‘z davrining muhim siyosiy va ijtimoiy hodisalari to‘g‘risida aniq va maqsadga muvofiq fikrlarni bayon etgan va jamiyatni isloh qilishni taraqqiyotning muhim tayanchi deb bilgan. Alloma qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yoshlarni poklik, yurt ravnaqi va farovonligi, ajdodlar yurtiga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va erkinlik, mustaqillikka yo‘naltiradi. Har bir millat va xalq o‘zining tarixiy qadriyatlariga doimo katta ehtiyoj sezadi. Bu qadriyatlar avlodlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi uchun doimo o‘z ahamiyatiga egadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Farsaxonova D.R “Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish” Ped.fan.nom.dis T.:-2020, 3-b
2. “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori //Xalq so‘zi. 2018 yil, 15-may.
3. Mirziyoyev Sh.M “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”- T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.-302 b
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son.-O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, 2022y., 70-maqsad.
5. Mahkam Mahmud, Nazarbek Raxim.Mahmud-Zamaxshariy “Oltin shodalar” T:.Extremum press-2010y,86b,21-b
6. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy risola T: Fan nashriyoti 32-bet, 11b